

ER-XOTINLAR O'RTASIDAGI ALIMENT MAJBURIYATLARI: HUQUQIY ASOSLARI VA AHAMIYATI

Aliqulova Nasiba Kamariddinovna

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada er-xotinlar o'rtasidagi aliment majburiyatlarining huquqiy asoslari, ularning mazmuni, ahamiyati va amaliy qo'llanish holatlari chuqur tahlil qilinadi. Aliment majburiyatlari oila institutlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u oila a'zolari o'rtasida o'zaro moddiy yordam va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, aliment to'lash majburiyatining yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi holatlar mehnatga layoqatsizlik, moddiy ehtiyoj, nikohning bekor qilinishi va o'zaro rozilik asosidagi shartnomalar misolida huquqiy tahlil amalga oshirilgan. Aliment majburiyatlarini to'liq va adolatli amalga oshirish nafaqat taraflarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi, balki jamiyatda oila institutining mustahkamlanishiga, oilaviy mas'uliyat va insoniy qadriyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: er-xotinlar, aliment, majburiyatlari, oila huquqi, oila kodeksi, moddiy yordam, nikoh, sud qarorlari, huquqiy javobgarlik, huquqiy asoslar, aliment to'lovi.

KIRISH

Oila munosabatlari jamiyatning barqaror rivojlanishi va insonlarning farovon hayot kechirishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Er-xotinlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar nafaqat nikoh jarayonida, balki uning bekor qilinganidan keyin ham davom etishi mumkin. Ayniqsa, aliment majburiyatlari ushbu munosabatlarning muhim bo'g'ini bo'lib, bir tarafning moddiy yordamga ehtiyoji tug'ilganda, ikkinchi taraf zimmasiga ma'lum darajada javobgarlik yuklaydi. Bu institut oilaviy-huquqiy munosabatlarda ijtimoiy himoya, o'zaro yordam va mas'uliyat tamoyillarining amalga oshirishiga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda aliment munosabatlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda, chunki iqtisodiy va ijtimoiy omillar oila a'zolarining moddiy ta'minotida turli qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois er-xotinlar o'rtasidagi aliment majburiyatlarining huquqiy asoslarini o'rganish, ular qo'llaniladigan holatlar va mexanizmlarni aniqlash dolzarb masalalardan biridir. Shu bois mazkur maqolada er-xotinlar o'rtasidagi aliment majburiyatlarining huquqiy asoslari, ularning amaldagi mazmun-mohiyati hamda ushbu institutning jamiyat hayotidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Oila huquqi tizimida aliment majburiyatlari o'zining murakkab tartibga solish mexanizmi va yuqori ijtimoiy ahamiyati bilan ajralib turadigan eng muhim huquqiy institutlardan biri hisoblanadi. Aliment oluvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shu jumladan davlatning ijtimoiy vazifalarini bajarishi aliment qoidalarining aniqligi va undirish mexanizmlarining samaradorligiga bog'liqdir. Oila a'zolari o'rtasida huquq va majburiyatlarni aniqlash orqali ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Masalan, er-xotin o'rtasidagi mulk, aliment to'lovi, bolalarga nisbatan mas'uliyat kabi masalalarni oilaviy

munosabatlarni tartibga solish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda ijtimoiy tartibni saqlashga yordam beradi. Huquqlarni himoya qilish oilaning har bir a'zosining (masalan, bolalar, ayollar) huquqlarini himoya qiladi. Bu normalar orqali oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashish va oilada adolatni ta'minlash mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib hozirgi kunda qonunchilikda turmush o'rtoqlar hamda sobiq turmush o'rtoqlar o'rtasidagi aliment majburiyatlarini o'rganish zarurati ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi oila qonunchiligiga binoan, faqat FHDYo organida qayd etilgan nikohgina Er-xotinlik huquq va majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh hech qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi. Er-xotinning huquq va majburiyatlari shaxsiy huquq va majburiyatlar; mulkiy huquq va majburiyatlarga bo'linadi.

Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlariga Er-xotinning oilada tengligi, familiya tanlash huquqi, bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini birgalikda hal qilish, mashg'ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlari kiradi. Er-xotinning oilada tengligi oila huquqining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan, "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" (46-modda). Oilada ham erkak va ayollar siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy masalalarda teng huquq hamda majburiyatga egadirlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasiga ko'ra, ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlar. Ushbu norma Oila kodeksining 21-moddasida ham belgilangan bo'lib, unga ko'ra, bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini Er-xotin birgalikda hal qilishlari lozim bo'ladi. Bu borada ular o'rtasida rozilik bo'lmasa, er yoki xotindan biri yoki ikkalasi birgalikda vujudga kelgan nizoni hal qilish uchun tegishli davlat organiga murojaat etish huquqiga egadir. Er-xotin mashg'ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlarida teng hisoblanadi. Oilada mashg'ulot turi, kasb tanlash masalalari kelishilgan holda hal qilinadi. Ammo ularni uzil-kesil hal qilish Er-xotinning har biriga tegishli bo'lgan huquq hisoblanadi.

Er-xotin bir-biriga moddiy yordam berishi shart. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin, shuningdek, xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgandan boshlab 3 yil davomida, o'rtada bolaga qaragan yordamga muhtoj xotin (er) yordam berishga qodir bo'lgan er (xotin)dan sud tartibida ta'minot (aliment) olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida nikoh shartnomasi normalangan (29-modda). Unga binoan, Er-xotinlar yoki bo'lajak Er-xotinlar nikohda bo'lgan davrida yoki Er-xotin nikohdan ajratilgan taqdirda, o'zlarining mulkiy huquq hamda majburiyatlarini nikoh shartnomasiga asosan kelishib, belgilab olishlari mumkin. Shartnoma shartlariga binoan, Er-xotinlar umumiy birgalikda, xususiy, aliment huquq va majburiyatlarini belgilab, o'zgartirib, bekor qilishlari mumkin.

Shuningdek, fuqarolik huquqi sohasida "usul" va "vosita" tushunchalariga nisbatan turli ilmiy qarashlar mavjud. Bu to'g'risida professor N.Imomov fikr bildirib shuni ta'kidlaydiki, xususiy huquq sohasida amal qiluvchi huquqiy munosabatlar barqaror bo'lishini ta'minlashga xizmat qiluvchi vositalar (shartnoma, mediatsiya, hakamlilik sudi,

talabnoma)dan unumli ravishda foydalanadi. Fuqarolik-huquqiy usul va vositalarni qo'llashning mexanizmlari va taomillarning to'g'ri va o'rinli qo'llash tushuncha va mohiyatni aniqlab olishga imkon beradi. S.V.Boshnoning fikricha, huquqiy munosabatlarning paydo bo'lish asoslari huquq sub'ektlariga huquqiy o'zaro ta'sir vositalarining majmuini belgilaydi. Tomonlar o'z ixtiyori bilan, xavf-xatarlar asosida fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzadilar. Huquqiy normalar ularga ushbu munosabatlarga kirishda tanlash erkinligini beradi, ular qonunga rioya qilgan holda shartnomada o'zaro huquq va majburiyatlarini mustaqil ravishda belgilash imkoniyatiga ega. Shartnoma munosabatlari teng, sanksiyalar shartnoma taraflarining manfaatlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan bo'ladi. M.I.Braginskiyning fikriga ko'ra, majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning asosiy maqsadi qarzdorni o'z majburiyatini bajarishga majbur qilishdan iborat. Ye.A.Pavlodskiyning ta'kidlashicha, esa bunday usullar qarzdorni o'z zimmasidagi harakatlarni kreditor foydasiga amalga oshirishga undaydi. V.V.Vitryanskiy majburiyatlar ijrosini ta'minlash vositalarining maqsadlariga qarzdor tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda ro'y berishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni oldini olish yoxud bunday holatni zararini kamaytirishdan shuningdek qarzdorni o'z majburiyatini aniq bajarishga undashdan iboratligiga e'tibor qaratadi.

Ayrim mutaxassislarining ta'kidlashicha, haqiqatan ham, atamalarining o'zaro nisbatini belgilab olish talab qilinadi. Bu esa, o'z navbatida har bir huquqiy munosabatda qo'llaniladigan atamalarining huququqiy mohiyati va ahamiyatini to'laonli anglash va tushunishga yordam beradi. Demak, biz ushbu tadqiqot jarayonida oila huquqida aliment majburiyatlarini ta'minlash usul va vositalari sifatida o'zaro kelishuv asosida, sud buyrug'i tartibida, da'vo tartibida aliment undirish bilan bog'liq masalalarni atroflicha tahlil qilishimiz mumkin.

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, rasmiy nikoh yoki fuqarolik (norasmiy) nikoh davrida har bir tomon boshqa tomondan aliment to'lashni talab qilish to'g'risida suddan talab qilishi mumkin, ammo turmush qurmagan sheriklardan biri boshqasidan alimentni talab qila olmaydi. Turmush o'rtoqlardan biri boshqasidan ta'minot talab qilishi juda kam uchraydi. Aliment berish miqdorlari odatda, kichik va olish nihoyatda qiyin kechadi. Muhimi shundaki, nikohni bekor qilishda sud tomonlardan biriga tegishli mol-mulkni qayta taqsimlash huquqiga ega. Biroq, nikohsiz munosabatlarni tugatishda sud mulkni faqat kimga tegishli ekanligini e'lon qilish huquqiga ega. Turmush o'rtoqlar yoki fuqarolik nikohidagi shaxslar va turmush qurmagan juftliklar o'rtasidagi muhim farq bo'lsa-da, uchta muhim omilni ta'kidlash kerak. Birinchidan, ko'plab juftliklar uchun 1991 yildagi "Bolalarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qonun bolalarni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Ushbu qonunlar turmush qurgan va turmush qurmagan er-xotinlarga birdek qo'llaniladi. Ikkinchidan, qonun qabul qilingandan so'ng, turmush o'rtog'ini yoki sherigini qo'llab-quvvatlashni hisobga olish uchun ko'pincha pul yetarli bo'lmaydi. Barcha ajralishlarning yarmidan kamida sudlar tomonlarning moliyaviy resurslari bo'yicha har qanday qarorlar qabul qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nikoh paytida aliment to'lash majburiyatini bajarishning qonuniy usullari mavjud bo'lsa-da, amalda juda kichik summalar jalb qilinadi va ular kamdan-kam undiriladi. Shubhasiz, ajrashgan ko'plab er-xotinlar

ajralish jarayonini davom ettirishda nafaqa yoki daromadga ishonadilar. Qonunchilik bolani qo'llab-quvvatlash majburiyati ajralishdan oldin tomonlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarda ustunlik qiladi. Turmush o'rtog'ini aliment to'lash majburiyatidan ozod qilish yoki ma'lum muddatga cheklash uchun asoslar ro'yxatini to'ldirishni taklif qilgan O.A.Makeeva fikricha, nikohga kirayotgan vaqtda er-xotindan biri o'zining kasalligini qasddan yashirgan bo'lsa va keyinchalik nikohdan so'ng nogiron bo'lib qolganligi sababli aliment undirish haqida so'rashlik holatlarida aliment majburiyatidan ozod qilish hamda muddatni aniq belgilash lozim.

Nikohdan ajralish er-xotinga, ayniqsa ayolga kuchli ruhiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Bu borada alohida ijtimoiy reabilitatsiya o'tashga doir mexanizmlar mavjud emas. Ayol kishi o'zini oilaga, bolalari tarbiyasiga bag'ishlagan hollarda o'zining ish lavozimida (karerasida) o'ta olmagan hollarda sud ushbu holatga alohida e'tibor qaratishini muhim deb hisoblaydi. Fikrimizcha, yuqoridagi fikrlar albatta muhim ijtimoiy voqelik, ayollarni ijtimoiy munosabatlarda teng huquqli ishtiroki alohida muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu boradagi yondashuv shunchaki ingliz huquqidan ko'chirib olish orqali ta'minlanmaydi. Ayniqsa, daromadni deklaratsiyalash tizimi, ish lavozimining o'sib borishi dinamikasiga doir qonuniyatlarning aniq emasligi bu borada jiddiy muammoni keltirib chiqaradi. Sudlar esa, odatda, qonun normasiga tayanib ish ko'radi.

Er-xotinning aliment yuzasidan huquq va majburiyatlari, ya'ni birbirlariga moddiy ta'minot berish majburiyatlari mulkiy huquq va majburiyatlar turlaridan biri hisoblanadi. Bu masala bo'yicha jinsiy holat hech qanday imtiyoz belgilamaydi. Oila huquqida turmush o'rtoqlar va sobiq turmush o'rtoqlar o'rtasidagi aliment majburiyatlari Oila kodeksi 117-121-moddalari bilan tartibga solinadi. Agar er va xotin xoxlasalar, Oila kodeksining 31-moddasiga muvofiq, taraflar o'rtasida tuziladigan nikoh shartnomasida aliment bo'yicha kelishuvga erishish imkoniyati mavjud (Oila kodeksining 130-moddasi).

Agar aliment to'lash uchun er-xotin o'rtasida kelishuv tuzilmagan bo'lsa, manfaatdor er (xotin) tegishli da'vo bilan sudga murojaat qilishi mumkin. Oila kodeksining 117-moddasida er-xotinning bir-biriga moddiy ta'minot berish majburiyatlari belgilangan. Bu borada alohida muddat nazarda tutilgan bo'lib, bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida ta'minot (aliment) olish huquqiga egaligini nazarda tutadi. Da'vo muddatining o'ziga xos ko'rinishini qayd etish o'rinli bo'ladi. Shuni ta'kidlash o'rinliki, ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligini ta'minlash va ularga nisbatan xar qanday kamsitishlarni ta'qiqlash bo'yicha juda ko'plab xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ular jumlasiga "Ayollarga nisbatan kamsitishlarni tugatish to'g'risidagi deklaratsiya" (1967 qabul qilingan), "Ayollar va bolalarni favqulotlda vaziyatlarda va qurolli to'qnashuvlar davrida himoya qilish to'g'risida deklaratsiya" (1974 yilda qabul qilingan), "Ayollarga nisbatan barcha shakllardagi kamsitishlarni tugatish to'g'risidagi Konvensiya" (1979 yilda qabul qilingan) kiradi. Agarda BMT o'z faoliyatini dastlabki davrlarda ayollarning umumiy huquqiy holati va ularga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish chora tadbirlari to'g'risida xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilgan bo'lsa, keyingi bosqichda e'tibor ko'proq ayollarning alohida huquqlari mazmuni va ularni himoya qilish masalalariga bag'ishlandi. Bunday xalqaro huquqiy hujjatlar jumlasiga "Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi

Konvensiya” (1952 yilda qabul qilingan), “Erga tekkan ayolning fuqaroligi to‘g‘risidagi Konvensiya” (1957 yilda qabul qilingan), “Nikoxga kirishga rozilik, nikox yoshi va nikoxlarni qayd etish to‘g‘risida Konvensiya” (1962 yilda qabul qilingan), “Nikoxga kirishga rozilik, nikox yoshi va nikoxlarni qayd etish to‘g‘risida Konvensiya bo‘yicha tavsiyalar” (1965 yilda qabul qilingan), “Odam savdosiga qarshi kurash va uchinchi shaxslar tomonidan foxishabozlikda ekspluatatsiya qilishga qarshi kurash to‘g‘risida Konvensiya” (1950 yilda qabul qilingan) va “Qulchilikni va qul savdosini va qulchilik bilan o‘xshash bo‘lgan odatlar institutlarini tugatish to‘g‘rsida qo‘shimcha Konvensiya” (1956 yilda qabul qilingan) misol keltirish mumkin. Bundan tashqari BMTning ixtisoslashgan muassasalari ham ayollarning huquqiy holati va ularga nisbatan kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlar tizimini yaratish jarayonida faollik ko‘rsatdilar. Jumladan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining bosh konferensiyasi 1951 yilda 111-sonli mehnat va bandlik sohasida kamsitishlar to‘g‘risida xalqaro mehnat tashkiloti Konvensiyasini, 1935 yilda 45-sonli ayollarning yer osti mehnati to‘g‘risidagi XMT Konvensiyasi, 1948 yilda qayta tahrirda 89-sonli ayollarning tungi mehnati to‘g‘risidagi XMT Konvensiyasini, 1965 yilda 123-sonli oilaviy majburiyatlari bo‘lgan ayollarning mehnati to‘g‘risidagi Tavsiyalarni qabul qildi. 2019 yilning 26 avgust sanasida “Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi Konvensiyaga qo‘shilish to‘g‘risida”gi (Kishinyov, 2002 yil 7 oktabr) qonun prezident tomonidan imzolandi. Qayd etish zarur bo‘ladiki, Minsk va Kishinev konvensiyalari doirasida Adliya vazirligi markaziy organ funksiyasini bajarib kelmoqda. Bu borada turli yondashuvlar, huquqiy hamkorlikning turli tushunmovchiliklarini bartaraf etishda ushbu organning o‘rni alohida bo‘lishini ta’kidlash muhim.

Minsk (27-modda) va Kishinyov (30-modda) konvensiyalari er-xotinning aliment majburiyatlarini tartibga soladi. Agar er-xotindan biri bir Ahdlashuvchi Tomon hududida, ikkinchisi esa boshqasining hududida istiqomat qilsa va har ikkala turmush o‘rtog‘i ham bir xil fuqarolikka ega bo‘lsa, ularning shaxsiy va mulkiy huquqiy munosabatlari Ahdlashuvchi Tomonning qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Agar er-xotindan biri Ahdlashuvchi Tomonning fuqarosi bo‘lsa, ikkinchisi boshqa mamlakat fuqarosi bo‘lsa va ulardan biri birining hududida, ikkinchisi esa boshqasining hududida yashasa, ularning shaxsiy va mulkiy huquqiy munosabatlar ular hududida oxirgi birgalikdagi yashash joyi bo‘lgan Ahdlashuvchi Tomonning qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Erkak va ayol o‘rtasidagi rasman qayd etilgan nikoh mavjud bo‘lmagan vaqtda, bu holat (qonuniy nikoh munosabatida bo‘lmaganlari sababli) ularning biriga boshqasidan tegishli moddiy yordam berishni talab qilish huquqini bermaydi. Bu qoida mutlaq tusga ega bo‘lib, erkak va ayolning amalda qancha vaqt nikoh munosabatlarida bo‘lganiga bog‘liq bo‘lmaydi.

Yuridik adabiyotlarda er-xotin va er-xotinlar uchun alimentlar ikki xil: doimiy va reabilitatsiya qilinganligi qayd etiladi. Ba’zi mualliflar uchta tur haqida so‘z yuritishadi. Bular: vaqtinchalik, doimiy va reabilitatsiyalovchi. Ushbu tasnif bir vaqtning o‘zida ikkita mezonga asoslanadi: amal qilish muddati va taqdim etilgan mablag‘larning maqsadi. Hozirgi vaqtda reabilitatsiya deb ataladigan alimentni belgilash, bu sobiq turmush o‘rtog‘iga

oila a'zolariga g'amxo'rlik qilish, uy-ro'zg'or ishlari, bolalarni tarbiyalash va to'lash bilan bog'liq bo'lgan mablag'lar sifatida tushunish mumkin.

Oila kodeksining 119-moddasiga asosan, er yoki xotinga beriladigan ta'minot mablag'ining miqdori qat'iy summada belgilanishi talab qilinadi. Er yoki xotinning o'zaro moddiy ta'minot berish majburiyati turli vaziyatlar bilan bog'liq. Xususan, zarur sharoitlar tugashi (voyaga yetganlik), mehnat qobiliyatini qayta tiklanishi, ehtiyojmandlikning bekor bo'lishi, moddiy imkoniyatning yaxshilanishi, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlar vujudga kelishi bilan tugaydi.

Aliment olayotgan shaxsning ba'zan nikohini bekor bo'lishi natijasida boshqa nikoh qurishi aliment to'lashning bekor bo'lishiga olib kelishi mumkin. Zero, ushbu holat o'zaro ta'minot borasidagi majburiyatni bekor qiladi.

Oila kodeksining 146-moddasiga ko'ra, sud taraflarning iltimosini inobatga olgan holda aliment to'lovi miqdorini o'zgartirish yoki bo'lmasa undan butunlay ozod qilishi mumkin. Er-xotin o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar ular o'rtasidagi mulkiy munosabatlarning barqaror bo'lishiga, oilani mustahkamlashga xizmat qiladi. Er-xotin o'rtasida vujudga keladigan nizolarni to'g'ri hal qilish alohida ahamiyatga molikdir. Bu nizolar sudlar tomonidan adolatli asosda hal qilinishi lozim. Fikrimizcha, er-xotinlar va sobiq turmush o'rtoqlarning aliment to'lash bo'yicha huquqiy munosabatlarining huquqiy mohiyatini aniqlashda ular nafaqat turmush o'rtoqlarning mulkiy munosabatlarining bir turi, balki aliment to'lash bo'yicha huquqiy munosabatlarning umumiy tizimiga ham kiritilganligidan kelib chiqish kerak.

Xulosa qilib aytganda, er-xotin o'rtasidagi aliment munosabatlari oila institutining barqarorligi va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Amaldagi qonunchilikda oila a'zolarining o'zaro moddiy qo'llab-quvvatlash majburiyatlari aniq belgilagan bo'lib, bu normalar turli hayotiy vaziyatlarda nikohni saqlangan holda ham, uning bekor qilinishi davrida ham shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Aliment majburiyatlarini qonunan tartibga solish nafaqat ijtimoiy himoya mexanizmidir, balki oilaviy munosabatlarda mas'uliyat va o'zaro hurmatni kuchaytiruvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Sud amaliyotida aliment to'lash tartibi, miqdori va muddatlarini aniqlashda har bir oilaviy vaziyatning individual xususiyatlariga e'tibor qaratilishi zarurligi ko'rinadi. Aliment munosabatlarini qonuniy, adolatli va amaliy jihatdan mukammal tartibga solish oila institutini mustahkamlash, shaxslar farovonligi va jamiyat barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Imomov N.F. Korruptsiyaga qarshi kurashning fuqarolik-huquqiy usul va vositalari. //Huquqiy tadqiqot. 2019. №9. 82-b.
2. Boshno S.V. Способы и методы правового регулирования. //Pravo I современные gosudarstva. 2014. 53-60-b.

3. Braginskiy M.I. Obyazatelstva i sposoby ix obespecheniya: neustoyka, zalog, poruchitelstvo, bankovskaya garantiya – M.: Pravovye normy o predprinimatelstve. Byulleten. Vypusk 1, 1995. - S.42
4. Pavlodskiy Ye.A. Dogovory organizatsiy i grajdan s bankami. – M.:Statut, 2000. - S.106.
5. Kommentariy chasti pervoy Grajdanskogo kodeksa RF dlya predprinimateley. – M.: Fond «Pravovaya kultura», 1995. - S.283.
6. Braginskiy M.I., Vitryanskiy V.V. Dogovornoe pravo: Obshchie polozheniya. – M.: «Statut», 1997. - S.384.
7. Imomov N. Qarz majburiyatini ta'minlashning fuqarolik-huquqiy vositalariga nisbatan yangicha yondashuvlarning tahlili. //Yuridik fanlar axborotnomasi. 2020. №2. 43-49-betlar.
8. Jonathan Herring. Family Law. Seventh edition. University of Oxford. 2015. 113-b.
9. Nigel Lowe, Gillian Douglas, Emma Hitchings, Rachel Taylor. Bromley's Family Law. Oxford University Press. 12-edition. 2015. 431-b. (Re Sh (Care Order: Orphan) [1995] 1 FLR 746 at p. 749).)
10. Makeeva O. A. Aktualnye napravleniya reformirovaniya alimentnogo zakonodatelstva Rossii // Semeynoe i jilishnoe pravo.-2012.-№ 2.-S.11-14.
11. Prava cheloveka//sbornik mejdunarodnyx dogovorov. Nyu-York: OON 1989 g.
12. Deyatelnosti OON v oblasti prav cheloveka. Nyu-York: OON. 1974 g.
13. “Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shilish to'g'risida”gi (Kishinyov, 2002 yil 7 oktabr) qonun. //HHMB. 03/19/554/3648-son. 26.08.2019y.
14. Astaxova M.A. Sposoby zashchity imushchestvennyx prav suprugov // Notarius. 2018. N 6. S. 30 - 33.
- 15.O'zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi”, 1998 yil (so'nggi o'zgartirishlar bilan).